



Received: January 6, 2025
Accepted: February 23, 2025
Available online: February 25, 2025

Malika Soatova

Mustaqil izlanuvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

INGLIZ TILIDA SO'ZLASHUVCHI HARBIY XIZMATCHILAR OG'ZAKI NUTQINING LINGVISTIK TAHLILI

ANNOTATSIYA

Tadqiqotning maqsadi – ingliz tilida so'zlashuvchi harbiylar og'zaki nutqini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishdir. Bu tahlil orqali maqolada nutq va til o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi, shuningdek, og'zaki so'zlashuv nutqining fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari ochib beriladi. Bunga ko'ra, so'zlashuv nutqi til faoliyatining bevosita ko'rinishi bo'lib, vaqt o'tishi bilan rivojlanib, vaziyatga moslashib boradi. Nutq tilning mahsuli bo'lsa-da, u bilan sinonim emas, chunki til muloqot va o'zaro ta'sir vositasi bo'lib xizmat qiladi, nutq esa individual o'zgarishlarni aks ettiradi.

Tadqiqot vazifalari og'zaki so'zlashuv nutqida tilning fonetik, grammatik va leksik jihatlarini tilning qanday rivojlanishi va turli kontekstlarda qanday amal qilishi haqida qimmatli ma'lumotlar berishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot tilshunoslik tahlili metodlariga asoslangan, shu jumladan, unda tavsiflovchi va solishtirma yondashuvlardan foydalanilgan. Mavzu bilan bog'liq leksik ma'lumotlar bazasi va ilmiy ishlar o'rganilgan. So'z yasash jarayonlaridagi qonuniyatlarni aniqlash uchun strukturaviy va semantik tahlil metodlari ham qo'llanilgan.

Natijalar nutqning individual va kontekstlarda qanday farq qilishi, ko'pincha yangi fonetik, leksik yoki grammatik xususiyatlarni kiritish bilan sodir bo'lmoqda. Bu xususiyatlarning ba'zilar asta-sekin tilning bir qismiga aylanishi mumkin, boshqalari esa, tilning umumiy rivojlanishiga zid bo'lsa, yo'qolishi hamda uzoq vaqt mobaynida ishlatilmaydigan elementlar arxaiqlashishi mumkin. Shuningdek, mazkur ishda tilni og'zaki

Malika Soatova

Independent Researcher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: malikasoatova111@gmail.com
ORCID iD: 0009-0003-3008-2027

LINGUISTIC ANALYSIS OF ENGLISH- SPEAKING MILITARY PERSONNEL'S ORAL SPEECH

ABSTRACT

The objective of this study is to conduct a linguistic analysis of the spoken discourse of English-speaking military personnel. This analysis elucidates the interaction between speech and language, as well as the phonetic, grammatical, and lexical features of spoken discourse. Spoken discourse is a direct manifestation of language activity, evolving over time. Although speech is a product of language, it is not synonymous with it, as language serves as a means of communication, while speech reflects individual variations.

The aims of the study include providing valuable insights into how the phonetic, grammatical, and lexical aspects of language in spoken discourse develop and function in various contexts.

The methodology of the study is based on linguistic analysis techniques, including descriptive and comparative approaches. A lexical database and relevant scientific literature are examined. Structural and semantic analysis methods are also employed to identify patterns in word formation processes.

The findings demonstrate how speech varies between individuals and contexts, often introducing novel phonetic, lexical, or grammatical features. Some features may gradually be incorporated into the language, while others may disappear if contradicting the general trajectory of language development. Elements unused for extended periods may become archaic. The significance of language acquisition through oral and written forms, and the importance of identifying and comprehending

va yozma shakllar orqali o'rganishning muhimligi, til taraqqiyoti qonuniyatlarini, jumladan, tovush tarkibi, so'z tuzilishi va intonatsiya kabi fonetik xususiyatlarni aniqlash va tushunish ahamiyati misollar orqali ochib berilgan.

Ingliz tilida so'zlashuvchi harbiylar nutqi fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega. Fonetik jihatdan nutq aniq emotsional intonatsiya bilan ifodalanadi. Leksik jihatdan, og'zaki nutqda ko'p hollarda maxsus harbiy terminlar va slenglar ishlatiladi, grammatik jihatdan esa qisqa va aniq gaplar ko'proq kuzatiladi. Bu elementlar birgalikda, harbiy muhoqotni samarali va tezkor amalga oshirishga xizmat qiladi hamda askarlar jamoaviy ruhi hamda yetakchiligini saqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: talaffuz, og'zaki so'zlashuv nutqi, unli tovushlar, undosh tovushlar, intonatsiya, nutq, so'z yasash, bo'g'in, qo'shimchalar, leksik.

language development patterns, including phonetic features such as sound composition, word structure, and intonation, are also revealed through examples.

The discourse of English-speaking military personnel exhibits distinctive characteristics phonetically, lexically, and grammatically. Phonetically, the speech is characterized by pronounced emotional intonation. Lexically, specialized military terminology and jargon are frequently employed in oral communication, and grammatically, concise and precise sentences are more prevalent. Collectively, these elements serve to enhance the effectiveness and efficiency of military communication, and contribute to maintaining soldier cohesion and leadership.

Key words: pronunciation, colloquial speech, vowels, consonants, intonation, speech, word formation, vowels, syllable, lexical.

KIRISH

Og'zaki so'zlashuv nutqi g'oyat ijtimoiy hodisa. Biz bu nutqdan fikrni anglatish, his-tuyg'ularni ifodalash, ma'lum maqsad va muddaoni tushuntirish, shuningdek, suhbatdoshimizda ham his-tuyg'u uyg'otish, o'z irodamizni bildirish va boshqa kishilar irodasiga ta'sir etish uchun foydalanamiz. Og'zaki nutq bir kishi tomonidan aytiladi, ikkinchi tomonidan qabul qilinadi. Nutq til vositasida aloqa qilish jarayonidir, boshqacha aytganda, nutq tilning bevosita voqe bo'lishidir [Cohen-Goldberg et al., 2013].

Ingliz tilida so'zlashuvchi harbiylar nutq uslublarini ijtimoiy va funksional o'rganish uchun, avvalo, lingvistik tahlil qilish lozim, bu esa harbiy muhitda harbiylar nutqining kommunikatsion vazifasini anglashga yordam beradi. Bu tahlil, serjantlar va oddiy askarlarning nutqi o'rtasidagi farqlarni va o'xshashliklarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Serjantlarning nutqi, ko'proq muayyan maqsadga qaratilgan bo'ladi. Lingvistik tahlilda, serjantlarning so'zlashuvi ko'pincha yuqori darajadagi buyruqlar va ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Bu nutq ko'proq imperativ rejimda bo'ladi, ya'ni, serjantlar ko'rsatmalarni to'g'ridan to'g'ri va qisqa shaklda ifodalaydilar. Masalan, "O'ting!", "Chiqing!" kabi buyruqlar aniq va to'g'ri tarzda ifodalangan. Serjantlarning nutqida harbiy terminologiya va qisqartmalar keng qo'llaniladi, bu esa ularga o'z ko'rsatmalarini qisqa va samarali yetkazishga yordam beradi. Bu uslub, harbiy vazifalarni samarali bajarish va tezkor reaksiyalarni ta'minlash uchun zarur bo'lgan aniq va qat'iy kommunikatsiya uslubidir [Christopher, 2007].

Oddiy askarlarning nutqini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularning nutqi odatda o'z shaxsiy tajriba va hissiyotlarini ifoda etganligi tufayli ko'pincha norasmiy hamda tabiiy ko'rinishda ifoda etiladi. Lingvistik tahlilda, bunday nutq ko'proq ekspressivlik va o'zaro suhbatlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, ular gaplashishda kundalik til va

to'liq bo'lmagan grammatikadan foydalanadilar. Ularning so'zlashuv uslubi ko'proq do'stona va samimiy bo'ladi, bu esa ular o'rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu uslub ko'proq tajriba almashish va hissiy tajribalarni ifodalashga yo'naltirilgan bo'lib, ko'pincha sodda va tushunarli bo'ladi [McClelland & Patterson, 2002].

Til xususida umumiy fikr yuritadigan bo'lsak, til og'zaki nutq shaklida amal qiladi. U og'zaki nutq orqali o'zgaradi va rivojlanadi. Nutq tilning bevosita faoliyatidir. Ayni vaqtda nutq tilga teng emas. Til aloqa – aralashuv vositasidir [Safarov, 2008]. Umuman olganda, yangi fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlar insonlar nutqida doimiy ravishda paydo bo'lish tabiatiga ega. Shuning uchun ham, bir tilda muloqot qiluvchilar nutqining bir-biridan farqli bo'lishi tabiiy holatdir [Fyodorova, 1991]. Bu xususiyatlardan ba'zi birlari asta-sekin shu tilga kirib boradi, boshqalari esa ma'lum bir til taraqqiyotining umumiy yo'liga zid bo'lganligi uchun o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi [Goldrick & Rapp, 2007]. Tilning shu tilda so'zlashuvchi kishilar nutqida uzoq vaqt ishlatilmagan elementlari arxaizmga aylanib qoladi. Tilni faqat og'zaki va yozma nutq orqali o'rganish mumkin, nutqda ma'lum til taraqqiyotining obyektiv qonunlari topilishi va aniqlanishi mumkin. Bu hol til tovush xususiyatlarini o'rganishga, jumladan, til tovush sostavi, so'zning tovush strukturasi, tovushlarning birikishi, urg'u, intonatsiyani o'rganishga tamomila taalluqlidir. Tilning tovush xususiyatlari nutqda sodir bo'ladi. Shuning uchun, xususiyatlar nutq orqali va nutqda o'rganilishi lozim. Demak, nutq qoidalarini qanchalik puxta o'zlashtirgan bo'lsak, til qonuniyatlarini shunchalik chuqur bilib boramiz va bu ta'riflarni o'z amaliy faoliyatimizda qo'llay boramiz [Alderete, 1997].

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot ingliz tilida so'z yasaliş jarayonlarini batafsil o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotning turli xil metodlarini qo'llagan holda lingvistik tahlilning turli usullaridan foydalaniladi. Avvalo, ingliz tilida so'z yasaliş tizimini bir vaqtning o'zida tasvirlash imkonini beradigan tavsif usuli qo'llaniladi. Bu usul morfemalarning strukturaviy belgilari va tasniflarini aniqlashda asosiy hisoblanadi. Tahlil uchun leksik ma'lumotlar bazalari va mavzu bo'yicha ilmiy ishlardan foydalaniladi. Tasniflash asosida olingan belgilar morfemalarni analiz qilish imkonini beradi, ya'ni harbiy diskursda mavjud leksemalarni guruhlariga ajratish va umumiy diskursiv belgilari asosida tahlil qilish nazarda tutiladi. Bu esa, ularning noma'lum xususiyatlarini, qonuniyatlarini va belgilarini topishga yordam beradi.

Shuningdek, tahlil metodi orqali olingan natijalar tadqiqot yo'nalishini yanada aniq qilib belgilab beradi. Klassifikatsiya metodi orqali analiz natijasida olingan morfemalar qismlari, bo'laklarini yiriklashtirish orqali bir-biriga funksional yaqinlarini birlashtirish va o'rganish imkonini beradi. Aksincha, funksional bir-biriga bog'liq bo'lmagan morfemalar esa differensiyalash metodi orqali tahlil etilgan. Bunday har xil qismlarning mavjudligi butunning, morfemalar tizimining ma'lum bir qonuniyatga bo'ysunishidan dalolat beradi.

Strukturaviy-semantik tahlil usullari ham muhim o'rin tutadi. Strukturaviy

tahlil soʻzlarning shakli va tuzilishini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, semantik tahlil morfemalarning soʻz yasash jarayonida maʼno va qoʻllanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu usullar birgalikda soʻz yasash jarayonlarini oʻrganishga kompleks yondashuvni taʼminlaydi.

Yuqorida qayd etilgan metodlar orqali erishilgan natijalar va xulosalar sintez metodi orqali umumlashtiriladi. Bu metod orqali sistemaning maqsad va vazifalari tahlil etilgan morfemalarga tatbiq etiladi. Ularning real holati sistemaning butun holatiga taqqoslash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Harbiy diskursning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish, dastlab, ingliz tilning fundamental xususiyatlari hisoblangan fonetik hamda fonologik xususiyatlarini koʻrib chiqishni talab etadi. Unlilar, undoshlar va intonatsiya, soʻzlarning urgʻusi ingliz tilida soʻzlar hamda iboralarning nutqda toʻgʻri anglanilishida asosiy omillar sifatida tan olinadi [Yusupov, 2013].

Unlilar talaffuzi

Ingliz tilida unlilar urgʻuli boʻgʻinda aniq talaffuz qilinadi, urgʻusiz bugʻinda esa bir oz qisqaradi [Ladefoged & Disner, 2012]. Ayniqsa, jarangsiz tovushlar oʻrtasida kelgan urgʻusiz [i], [u] unli tovushlari noaniq talaffuz etiladi. Misol uchun: “carpet” / ˈkɑːpɪt/ [Byrd, 1996].

Ingliz harbiy soʻzlashuv nutqida unlilar talaffuzi aniq va kuchli boʻlishi muhim hisoblanadi, ayniqsa, buyruq berishda yoki tezkor aloqa jarayonida. Soʻz boshi va oʻrtasida kelgan unli tovushlar aniq va ravon talaffuz qilinadi, shuningdek, soʻz oxirida ham ularning kuchsizlanishi kuzatilmaydi [Fesenko, 2018]. Soʻzning boshida kelgan unlilar odatda urgʻu bilan kuchli talaffuz qilinadi, ayniqsa, buyruq gaplarda. Masalan, “Attention!” [əˈtɛnʃən] soʻzida birinchi unli aniq eshitilib, harbiy buyruqlarda shoshilinchlikni taʼkidlaydi [Cholin et al., 2006]. Xuddi shuningdek, “Evacuate now!” [ɪˈvækjuet naʊ] soʻzida “E” tovushi toʻliq talaffuz qilinib, soʻzning taʼsirchanligini oshiradi [Ladefoged & Disner, 2012]. Soʻz oʻrtasida kelgan unli tovushlar ham ravshan va noaniqlikka yoʻl qoʻymaslik uchun aniq aytiladi. Harbiy muloqotda “Commander on deck!” [kəˈmɑːndər ɒn dɛk] kabi gaplarda “O” va “A” tovushlari tushunarli boʻlishi kerak, aks holda notoʻgʻri tushunishlar yuzaga kelishi mumkin [Bybee, 1995].

Xuddi shuningdek, “Mission abort!” [ˈmɪʃən əˈbɔːt] soʻz birikmasida “I” va “O” tovushlari kuchli urgʻu bilan talaffuz qilinadi [Makhmudova, 2021]. Soʻz oxirida ham unlilar kuchsizlanmaydi, aksincha, harbiy buyruqlarda taʼsirchan va ravon boʻlishi kerak. Masalan, “Move out!” [muːv aʊt] yoki “Go, go, go!” [gəʊ gəʊ gəʊ] kabi buyruqlarda “O” va “U” tovushlari aniq eshitiladi va hech qanday qisqarishga yoʻl qoʻyilmaydi. Raqamlar bilan ishlatiladigan harbiy aloqa kodlarida ham bu qoida amal qiladi. Masalan, “Five-zero!” [faɪv ˈzɪərəʊ] yoki “Charlie-three!” [ˈtʃɑːli θriː] soʻzlarida soʻnggi unlilar aniq talaffuz qilinadi va yoʻqolib ketmaydi [Cohen-Goldberg et al., 2013]. Harbiy buyruqlar va aloqa tizimida talaffuzdagi aniq va ravon talaffuz nafaqat muloqotning samaradorligini oshiradi, balki notoʻgʻri tushunishlarning ham

oldini oladi. Masalan, “Cease fire!” [si:s ‘faɪər] kabi buyrug‘ida “I” va “A” tovushlari tushunarli va ravshan aytilishi kerak, chunki bu so‘zlarning noto‘g‘ri talqini hayot-mamot masalasiga olib kelishi mumkin [Xu & Xu, 2003]. Shuningdek, “Execute command!” [‘ɛksɪkjʊ:t kə’mænd] iborasida har bir unli tovush alohida urg‘u bilan ta’kidlanadi. Shu sababli, harbiy muloqotda talaffuzning aniqligi va ravonligi nafaqat samaradorlikni ta’minlaydi, balki operatsiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga ham yordam beradi [Christopher, 2007].

Intonatsiya

Intonatsiya xususiyatlari voqelik yoki kontekst orqali aniqlanadi va gapning leksik tarkibi hamda grammatik qurilishi bilan birgalikda sodir bo‘ladi. Intonatsiya aloqa almashuvining muayyan, konkret sharoitlarida gapda aytilgan fikrning tugallanganligini bildiradi. U kishilarning aloqa almashuv jarayonidagi emotsional iroda munosabatlarini ham ifoda etadi [Bybee, 1995].

Intonatsiya gaplarning kommunikativ tiplarini va turlarini farqlaydi. Gapning kommunikativ ma’nosi juda umumiy tarzdadir. Gap asosan turt xil kommunikativ yo‘l bilan ifodalanadi; darak, so‘roq, buyruq va undov. Odatda gap va intonatsiyaning kommunikativ tiplari ana shunga qarab farqlanadi [Lieberman & Prince, 1977; 249]. Ularning bu turlari fonetik tajribalar orqali asta-sekin bilib olinadi va u birorta hikoya, so‘roq, tilak yoki undovning bir xil turi sifatida idrok qilinadi. Masalan, biz muloqot jarayonida nutqimizning uslubiga ko‘ra bayon qilish, xabar berish, javob berish hamda taqdim qilish kabi kommunikatsion vazifalarni intonatsiya orqali farqlaymiz. Nutqiy intonatsiya idrok qilinar ekan nutqiy davrlarga, davrlarni jumalarga, jumalarning sintagma deb ataladigan ma’noli bo‘laklarga bo‘lishi ma’lumdir [Cohen-Goldberg et al., 2013].

Turli tillar o‘rtasidagi intonatsion yaqin o‘xshashlik ovozinig emotsional tembr nozikligida ko‘rinadi. Intonatsiya so‘zlovchining his va irodasining eng nafis jihatlarini aks ettiradi. So‘zlashuv nutqi intonatsiyasi grammatika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kommunikativ, sintaktik, mantiqiy, modal va boshqa funksiyalarni bajaradi. Intonatsiya nutqning stilistik xususiyatlarini farqlash vositalaridan biridir, ya’ni tilda orfoepik jihatdan so‘zlashuv nutqni ajratib ko‘rsatadi [Grishechko, 2011]. Grammatika hamda intonatsiya muloqot qilish jarayonida bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan omillar hisoblanadi. Bunga esa ular o‘rtasidagi munosabat tufayli hosil bo‘luvchi kommunikativ, sintaktik, mantiqiy, modal va boshqa turli funksiyalar asosiy sababdir. Nutqning stilistik xususiyatini aniqlashda intonatsiya asosiy omil hisoblanadi. Nutqning asosiy farqli jihatlar shu jumladan, orfoepik jihati intonatsiya orqali amalga oshiriladi. Bu jihatdan intonatsiya nutqdagi kontekstual farqlanish hamda stilistik tafovutlarni anglashga yordam beradi.

So‘zlashuv nutqida intonatsiya sintaktik vositalar bilan o‘zaro munosabatda yashaydi, bir-birini to‘ldiradi va bir-birining o‘rnini bosadi. Intonatsiya ko‘pincha jumla ma’nolarini anglatishda birdan-bir vosita bo‘lib xizmat qiladi, gap grammatik vositalar bilan ifodalangan chog‘da ham intonatsiya o‘sha gapni shakllantirishda muayyan rol o‘ynaydi, uni fonetik jihatdan uyushtiradi. Ko‘rinadiki, ingliz so‘zlashuv nutqining intonatsiyasi juda boy, shuning uchun gapning kommunikativ turlaridan

muvaqqiyatli foydalanish – qayerda, kimga, nima to‘g‘risida so‘z ketayotganda har bir intonatsion modelni konkret nutqiy sharoitga moslashishni talab etadi [Berent, 2016].

Umuman olganda, og‘zaki so‘zlashuv nutqini ifodalashda xizmat qiladigan bir qancha (fonetik, grammatik, leksik) vositalar mavjud bo‘lib, ulardan leksik vositalar muhimroqdir. So‘zlardan muvaqqiyatli foydalanish predmet, tushuncha va so‘zning bir-biriga bo‘lgan aloqasini belgilay olishni talab qiladi [Clements, 1990].

So‘z tafakkur jarayonining verbalizatsiya etish vositasi sifatida shaxsning kognitiv jarayonining nutqqa ko‘chirilishida asosiy omildir. Og‘zaki va yozma nutq jarayonida so‘zdan foydalanuvchilar albatta so‘zning kontekstual hamda aktual ma‘nolari haqida dalillangan fikrga ega bo‘lishlari lozim, bunda lug‘atlar asosiy yordamchi vosita sifatida qayd etiladi. Bu jarayonda esa lug‘atlardan foydalanish quyidagi amallarni o‘z ichiga oladi:

- 1) faol lug‘at boyligini kengaytirish;
- 2) so‘zlarning asl va ko‘chma ma‘nolarida, maqol va frazeologik iboralarni qo‘llay bilish;
- 3) terminlarni bilish va ularni ishlatish;
- 4) sinonim, omonim va antonimlardan foydalanish;
- 5) internatsional so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash;
- 6) dialektal so‘z va iboralardan juda zarur bo‘lgandagina foydalanish;
- 7) qisqartma so‘zlarni bilib ishlatish;
- 8) uslubiy jihatdan belgilangan lug‘aviy qatlamdan (sleng, varvarizm, jargon) nutqni rang-barang qilish maqsadida foydalanish [Fiorentino & Poeppel, 2007].

AQSh armiyasidagi oddiy askarlar yoki “privat”larning og‘zaki nutqi o‘ziga xos lingvistik jihatlarni namoyon qiladi. Ular nutqida uchraydigan leksik, grammatik, fonologik xususiyatlarga e‘tibor qaratamiz va ularga misollar keltiramiz. Oddiy askarlar og‘zaki so‘zlashuv nutqida maxsus leksika va harbiy jargonlar ko‘p ishlatiladi [Adrey, 2009]. Harbiy jargonlar, atamalar va qisqartmalar, ko‘pincha nutqning ajralmas qismi bo‘ladi. Misol uchun, “PT” – physical training (jismoniy mashg‘ulot); “MOS” – military occupational specialty (harbiy kasbiy ixtisos); MRE – meal-ready-to-eat. Oddiy nutqda qo‘llaniladigan sleng va laqablar: “boots” (yangi askarlar), “grunts” (piyoda askarlar). Akronimlar ko‘pincha qisqartirilgan shaklda ishlatiladi: “SNAFU” (Situation Normal, All Fouled Up). Masalan: “Hamma narsa SNAFU holatida”, “FUBAR” (Fouled Up Beyond All Recognition). Masalan: “Operatsiya to‘liq FUBAR edi” [Christopher, 2007].

Oddiy askarlarning nutqida grammatik xususiyatlar quyidagicha namoyon bo‘ladi: ellipsis (qisqartirish): gaplar ko‘pincha qisqartiriladi: “Men yukimni joylashtiraman” o‘rniga “Yukimni joylashtiraman” [Ullman, 2001]. Oddiy askarlarning nutqidagi fonologik xususiyatlar quyidagilardan iborat: unstressed vowels (urg‘u olmagan unli tovushlar): ko‘pincha qisqartiriladi: Masalan: “gonna” (going to), “wanna” (want to) bo‘lib talaffuz qilinadi [Pegler, 2014]. Consonant cluster reduction (undosh klasterlarining qisqarishi): undoshlar birlashishi qisqaradi. Masalan: “Temporary” so‘zi “temp” deb talaffuz qilinadi. Non-standard pronunciations

(noan'anaviy talaffuzlar): hududiy aksentlar va talaffuz o'zgarishlarini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: janubiy aksentda "You all" – "y'all", "Let me help you", "Lemme help ya" deb talaffuz qilinadi [Uwen & Mensah, 2022].

Endi yuqoridagi xususiyatlarni amaliy til faktlarida qay shaklda kuzatiladi, so'zlashuv nutqida yana qanday qonuniyatlar kuzatiladi, shu kabi masalalarni bilish uchun so'zlashuv nutqining bir necha namunalari tahlil qilib chiqaylik. Misol tariqasida esa ingliz tili og'zaki nutqi namunalari berilgan. Z.X. Xerstonning "Ularning ko'zlari xudoga yo'naltirilgan edi" ("Their eyes were watching God") nomli asaridan olingan parchalarni ko'ramiz:

Ah know exactly what Ah got to tell yuh but it's hard to know where to start at: "Ah ain't never seen mah papa". And Ah didn't know 'im. If Ah did. Mah mama neither. She was gone from round dere long before Ah wuz big enough tuh know [Hurston, 2006; 10].

Yuqoridagi parchada so'zlashuv nutqining bir qator shubhasiz markerini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, 1- kishilik olmoshi barcha hollarda *Ah* – shaklida talaffuz qilinadi, *you* – olmoshi talaffuzi yuhga o'zgartiriladi, *him* – olmoshida birinchi undosh qisqarib so'z *'im* tarzida talaffuz qilinadi. *My* – egalik olmoshi – *Mah* shaklida kelgan, *there* fe'lining o'tgan zamon shakli was so'zlashuv nutqining bu namunasida *wuz* shaklida talaffuz qilingan va bu yozuvda o'z ifodasini topgan. Infinitivning markeri *to* yuklamasi ham *tuh* shaklida talaffuz qilingan. Yuqorida aytilgandan tashqari *ain't never* kabi ikkilangan inkor iborasini uchramiz. Bularning hammasi so'zlovchi nutqining norasmiy sharoitda e'tiborsiz gapirganligidan dalolat beradi. So'zlovchining savod darajasi ham unchalik yuqori emas. Keyingi parchani tahlil qilamiz:

Mah grandma and de white folks she worked wid. She had a house out in de backyard and dat's where Ah wuz born. They was quality white folks up dere in West Florida Named Washburn. She had four grandchillun on de place and all of us played together and dat's howcome Ah never called mah Grandma nothin' but Nanny, cause dat's what everybody on de place called her [Hurston, 2006; 10].

Bu parchada ham so'zlashuv nutqining qator belgilarini ko'ramiz. Avvalgi parchada aytib o'tilganlardan tashqari bu matnda biz quyidagi xususiyatlarni uchramiz:

De – bu so'z aniq artikl the uchun ishlatilgan. *Wid* – esa with predlogi, *dat's* esa that is ning qisqartirilgan shaklidir. *Dere there, gran'chillun* – grandchildren, *nothin* – nothing, *'cause* – because. Bundan tashqari, *They was* birikmasida ega va bog'lovchi fe'ning sondagi moslashuvi buzilgan.

Bularning hammasi so'zlovchi nutq faoliyatining og'zaki jarayoniga tegishli ekanligidan dalolat beradi. Chunki, bu yerda yuqorida ta'kidlab o'tilgan lingvistik xususiyatlar nafaqat talaffuzda balki grammatikada ham kuzatiladi. Keyingi parchani tahliliga o'tamiz:

Nanny used to ketch us in our devilment and lick every youngun on de place and Mis' Washburn did de same. Ah reckon dey never hit us ah lick amiss 'cause dem three boys and twoo girls wuz pretty aggravatin' Ah speck. "Ah was wid dem white chillun so much till Ah didn't know. Ah wuzn't white till Ah was round six years old [Hurston,

2006; 10].

Bu parcha ham so‘zlashuv nutqining qator markerlarini o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilardir: *to ketch – to catch, young’un – young one; dey – they, aggravatin’ – aggravating; speck – spoke, said; wid dem – with them; chillum – children; wuzn’t – wasn’t.*

Keyingi parchaning tahliliga o‘tamiz:

Wouldn’t have hound it out then, but a men come long takin’ pictures and without askin’ anybody. Shelby, dat was de oldest boy, he told him to take us. Round a week later de man brought de picture for Mis’ Washburn, to see and pay him which she did, then give us all a good lickin! [Hurston, 2006; 11]

Bu so‘zlashuv nutqining markerlari: *asking – askin; taking – takin that – dat: licking – lickin; a man come a man comes.*

“So when we looked at de picture and everybody got pointed out there wasn’t nobody left except a real dark little girl with long hair standing by Eleanor. Dat’s where Ah wuz s’posed to as me. So Ah ast where is me? Ah don’t see me. Dat’s you, Alphabet, don’t you know yo’ ownself?” [Hurston, 2006; 11].

Yuqoridagi parchada biz so‘zlashuv nutqining quyidagi markerlarini topamiz:

The de: wasn’t anybody wsn’t nobody, That’s-Dat’s; asked-ast; supposed→s’posed; your yo’; yourself-ownself; pointed got pointed.

Endi navbatdagi parchani tahlil qilamiz:

Miss Nellie, de. Mama of de chillun who come back home after her husband dead, she pointed to de dark one and said, “Dey all useter call me Alphabet ‘cause so many people had done named me different names. Ah looked at de picture a long time and seen it was mah dress and mah hair so Ah said:

“Aw, aw! Ah’m colored”.

“Den dey all laughed real hard. But before de picture Ah through. Ah wuz just tike de rest...”

So‘zlashuv nutqining bu parchasida biz quyidagi belgilarni topamiz:

Husband was dead-husband dead;

Had named-had done named;

Then they den dey;

I was Ah wuz;

Saw-seen.

Ko‘rinib turibdiki, so‘zlashuv nutqining bu parchasida ham fonetik, ham grammatik xususiyatlar ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa og‘zaki so‘zlashuv nutqining ishtirokchilari tomonidan ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli nostandart talaffuz namunalari va grammatik strukturalar uchratishning oddiy hol ekanligidan darak bermoqda. Bu kabi nostandart strukturalar ishlatilishining asosiy sabablari deb quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1) nutq norasmiy sharoitda o‘tmoqda;

2) nutqni cheklovchi hech qanday tashqi faktorlar yo‘q;

3) nutq ishtirokchilarining savod darajalari yuqori emas;

4) so‘zlovchi tomonidan qo‘llanilayotgan talaffuz normalari va grammatik

strukturalar kommunikatsiya qatnashchilarining barchasiga xosdir va h.k.

Ogʻzaki soʻzlashuv nutqi leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy xususiyatlaridan tashqari soʻz yasash borasida ham oʻziga xos xususiyatga ega [McClelland & Patterson, 2002]. Tildagi mavjud soʻz yasash vositalari soʻzlashuv nutqida qandaydir bir jarayonlarni boshdan kechiradimi? Yoki boʻlmasa u yoki bu soʻz yasash vositalarida ishlatish koʻlamida faollashuv yoki passivlashuv, maʼno kengayishi yoki torayishi kabi masalalarni oʻrganish va yuqorida qoʻyilgan savollarga ilmiy jihatdan talqin va yakuniy toʻgʻri baho berish mazkur maqolaning asosiy vazifasi qilib oʻz oldimizga qoʻydik.

Maʼlumki, tilning soʻz yasash vositasi eng modaga beriluvchi soha boʻlib, tilning jamiyat bilan bevosita aloqaga kirishadigan joyi boʻlib tilning hech bir boʻlimi bu darajada oʻzgarish, yaʼni koʻpayishi va ozayishiga moyil boʻlmasa kerak. Chunki, turli sabablarga koʻra, lingvistik yoki ekstralingvistik sabablarga koʻra u yoki bu soʻz yasash vositasi oʻz mahsuldorligini keskin oshiradi yoki keskin kamaytiradi [Hakimov, 2013]. Bu yerda qator juda qiziq narsalarni kuzatamiz. Ular asosan jumladagilar boʻlishi mumkin:

- asrlar davomida nomahsul yoki kammahsul hisoblanib kelgan u yoki bu soʻz yasash vositasi kutilmaganda juda faollashib ketishi mumkin;

- bu faollik uzoq davom etmasligi mumkin;

- soʻz yasash vositalari oʻrtasida sinonimiya hodisasi kuchayib ketishi oqibatida sinonimik qatorlar yuzaga kelishi mumkin;

- yangi paydo boʻlgan soʻzlarning maʼno koʻlami mana shu soʻz yasovchi vosita yordamida avvalroq yasalgan soʻzlardan oʻz maʼno koʻlaminin kengligi bilan keskin farq qilishi mumkin;

- soʻz yasovchi vositalarning bu kabi faollashuvi soʻzlashuv nutqining doimo yangi ifoda vositalarini paydo qilishiga, ifodaviylikni soʻzlashuv nutqining doimo yangi ifoda vositalarini paydo qilishiga, ifodaviylikni va emotsionallikni kuchaytirishga boʻlgan tendentsiyasi bilan izohlanadi.

Endi mana shu suffikslarning funksional koʻlami va maʼnosining kengayishiga misol tariqasida eski suffikslar tomonidan ogʻzaki soʻzlashuv nutqida yaratilgan yangi soʻzlarning maʼnolarini koʻrib chiqamiz:

- **ville** suffiksi – hozirgi kammahsul deb hisoblanib kelingan suffiksning soʻzlashuv nutqida 80-90-yillarda qayta jonlanishi kuzatildi. Bu suffiks oila nomlari (*Melville*) va joy nomlarini bildirib kelgan boʻlsa (*Louisville*, *Bronxville*), keyingi paytda yanada kengroq maʼnodagi otlarni yasay boshladi (masalan: *Mudsville*, *Beatsville*, *Movieville* (Gollivudga berilgan nom); *Dullsville* (esi pastroq odamning uyi); *Teensville* (oʻsmirlar guruhi); *Flatsville* (qaddi-qomatni kelishmagan, haddan tashqari ozgʻin qiz yashaydigan uy.); *Intriguesville* (teleseriallar koʻrsatiladigan joy);

- **eer** suffiksi ham soʻzlashuv nutqida yana sermahsul boʻlib qoldi. Masalan: *racketeer* – (reketir); *profiteer* – (“foydaning ketidan quvib boshqa narsalarga panja orasidan qaraydigan shaxs”); *patrioteer*, *blacketeer* (“nolegal bozor raxetiri”); *pro-Marketeer*, *anti-Marketeer* (“bozor iqtisodiyoti tarafdorlari va bozor iqtisodiyotiga qarshi boʻlgan odamlar”); *Toileteer* – (“xojatxonalar va sanuzellar boʻyicha

mutaxassis”) *slesar* – *santexnik*”); *oilateer* – (“yog‘ quyish shaxobchalari xodimlari”); Misollar: *fashioneer*, *sloganeer*, *junketeer*, *electioneer*, *chariteer* – (“Xayriya yordamiga o‘rganib qolgan xayriyaviy gadoy”); *upper-bracketeer*, *gadyeteer*, *vacationeer*, *boozeteer*, *electineer*, *diamondeer*.

– **ster** suffiksi – *ganyster*, *mobster*, *roadster*, *polister* – (“Saylov uchastkasida faoliyat ko‘rsatuvchi xodim”); *schoolster* – o‘quvchi: *jeepster* – jipga o‘xshash mashina; *hipster* – kishilarning eng ilg‘or, yo‘lboshchi vakili.

– **dom** suffiksi – *gangdom*, *gansterdom*, *mobdom*, *fandom*, *moviedom*, *filmdom*, *officialdom*, *hippiedom*.

– **ese** suffiksi – “... ning tili” ma‘nosida. *Journalese* – jurnalistika, *cinemese* – kino tili: *collegese*, *Harlemese*, *novelese*, *fadlinese*, *pedajese*, *New-Yorkese*, *variety-ese*, *translatese*.

– **ee** suffiksi – “...uvchi” ma‘nosida. *Frainee*, *returnee*, *draftee*, *selectee*, *addressee*, *divorcee*, *reteree*, *standee* – (“tomoshani tik turib tomosha qiladigan shaxs”); *flunkee* – (“imtihondan yiqilgan talaba”);

– **ness** suffiksi – *proudness* (= *pride*); *beautiffulness* (= *beauty*); *thirstiness* (= *thirst*) *corruptness* (= *corruption*); *mysteriousness* (= *mystery*); *whyness*, *everydayness*, *therenes*, *nounness*, *verbness* va h.k.

– **eroo** (aroo, oo). – *buckaroo* (cowboy), *floperoo*, *stinkeroo*, *diveroo*, *itteroo*, *jokeroo*, *kisseroo*, *blabberoo*. Hozirda bu suffiks yana o‘z mahsuldorligini yo‘qotdi.

– **teria** – *safeteria* – bunga ma‘nodosh so‘zlar og‘zaki so‘zlashuv nutqida juda ko‘p yasalmogdaki, ular biznes faoliyati olib boriladigan va xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan muassasa ma‘nosini anglatadi. Umuman olganda, o‘rin-joyini bildiradi, masalan: *luncheteria* – *tamaddixona*; *spaghetteria* – *spagetti* tayyorlab sotiladigan oshxona, *shaveteria* – *sartaroshsiz sartaroshxona* bo‘lib, bu yerda mijozlar soqollarini oldirtiradilar; *washeteria* – *mijozlar kelib o‘z kirlarini yuva oladigan joy*, *booketeria* – *qisman o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan kutubxona*; *bootblackteria* – *oyoq kiyimlarini cho‘tkalab va boyab olish mumkin bo‘lgan joy*, *drygoodsteria* – *gazlama sotiladigan joy*; *groceteria* – *tastronomiya*; *restaurateria* – *kichkina restoran* [Cohen-Goldberg et al., 2013].

Ayrim yasama so‘zlarda esa “o‘z-o‘ziga xizmat qiluvchi” ma‘nosi yoq. Masalan: *hateteria* – *shlyapa*; *smoketeria* – *tamaki chekish mollari do‘koni*; *chocolateria* – *shokolad mahsulotlari sotiladigan do‘kon*; *valeteria* va *wrecketeria* – *eski mashinalar buzib tashlanadigan joy*. Masalan: “Mg. Higgins designed and constucted a “cowfeteria”. *That lets the cows select and eat as much feed as they want*”.

– **burger** qo‘shimchasi (*hamburger* kabi) – oziq-ovqat va yegulik narsalarni bildiruvchi so‘zlar yasashda keyingi paytda juda sermahsul qo‘shimcha bo‘lib ketdi. Masalan: *cheeseburger* – *pishloqli buterbrod*, *chickenburger* – *jo‘jali buterbrod*, *beefburger* – *mol go‘shtili buterbrod*, *lamburger* – *barra*, *qo‘zi go‘shtili sendvich*, *rabbitburger* – *quyon go‘shli bilan tayyorlangan buterbrod*, *fishburger* – *baliqli buterbrodi*, *pigburger* – *cho‘chqa go‘shtili buterbrod*, *horsemeatburger* – *qazili buterbrod*, *turkeyburger* – *kurka go‘shli qo‘yilgan buterbrod*, *onionburger* – *piyozli buterbrod*, *garelleburger* – *kiyik go‘shli qo‘shilgan buterbrod*.

Bundan tashqari, yemakxona atrofidagi obyektlar nomi bilan bogʻlanib yasalgan soʻzlar bor. Masalan: *Heeburger* (*Deytroytdagi Hub – yemakxonasida sotiladi*); *Midgeburger* (*Deytroytdagi Midge yemakxonasida sotiladi*); *wishburger* (*Kaliforniyadagi “orzular bulogʻi” yonida joylashgan yemakxonada tayyorlab sotiladi*); *Paradburger*, *tinburger*, *heelthburger*. Nemis tilidan kirib kelgan yana bir qoʻshimcha: *furter* (*frankfurterdan*) qator soʻzlarning yasaliishiga asos boʻldi. Masalan: *turkeyfurter*, *chickenfurter*, *shrimpfurter* [Badecker, 2001].

– **fest** suffiksi – bayram, festival maʼnosi bilan bogʻliqdir. Bu suffiks bilan ham qator soʻzlar yasalgan. Masalan: *talkfest* (*mahmadonalar bayrami, maza qilib gaplashsa boʻladigan joy va marosim*); *slugfest* (*boks oʻyini*); *gossipfest* (*mish-mishlar makoni va mish-mishchilar bayrami*); *smokefest* (*chekuvchilar bayrami*); *walkfest*, *gapfest* (*bekorchilikdan gaplashib oʻtirish*); *sonfest*, *smilefest*, *eatfest* (*ziyofat*); *boorefest*, *bookfest* (*kitob savdosi*);

– **cade** suffiksi – maʼnosi “marosim yoki tomosha maʼnosida soʻzlashuv nutqida juda koʻp yangi soʻzlar yasaldi: *motorcade*, *autocade* (*avtomarosim*); *musicade* (*musiqali marosim*); *aquacade* (*suvda oʻtkaziladigan marosim*); **-scape** suffiksi “*landscape*” manzara soʻzini yasagani bilan mashhur boʻlib keyingi yillarda soʻzlashuv nutqida qator yangi soʻzlarni yasashda faol ishtirok etdi: *seascape*, *landscape*, *cloudscape* (*bulutlar manzarasi*); *sandscape* (*qumliklar manzarasi*); *waterscape* (*suv manzarasi*); *mountainscape* (*togʻ manzarasi*); *moonscape* (*oy manzarasi*); *parkscape* (*park manzarasi*); *skyscape* (*osmon manzarasi*); *roadscape* (*yoʻl manzarasi*); *housescape* (*uy manzarasi*); *mindscape* (*tafakkur lahzasi*); *dreamscape* (*narkotik moddalar taʼsirida yuzaga kelgan gallyutsinatsiyalar*) [Brandes & Provotorov, 2001].

– **cracy** (*aristocracy* – soʻzining oxirgi elementi); *landocracy* (*yer egalarining hukmronligi*); *plutocracy* (*yolgʻonchi muttahaamlar hukmronligi*); *cottonocracy* (*paxta yakkahokimligi monokulturasini*), (*paxta yakkahokimligi*), *gerontocracy* (*qarilar hukmronligi*), *meritocracy*, *mediocracy* [McClelland & Patterson, 2002].

– **athon** (*marathon* soʻzining ikkinchi qismi): *danceathon*, *swimathon*.

– **rama** (*panorata* soʻzining ikkinchi qismi) – umumiy maʼnosi – tomosha. *Cinerama* (*kino-shou*); *motorama* (*moto – bayram*); *autorata* (*avtotexnika sayli*); *jetarama* (*aviauchishlar tomoshasi*); *godrama* (*dunyo dinlariga bagʻishlangan marosim – tomosha*);

– **wise** yarim suffiks maʼnosi – “... nuqtayi nazaridan”, “...ga kelsak”, “... haqida gapirsak”. Masalan: *weatherwise* (*obi-havo haqida gapirsak*); *conventionwise* (*shart-sharoit nuqtayi nazaridan*); *advertisementwise* (*reklama qilish yoʻli bilan*); *fashionwise* (*moda nuqtayi nazaridan*); *percentagewise* (*foiz koʻrsatkichni maqsad qilib olgan holda*); *publicitywise* – “*omma uchun oʻynash, xoʻjakoʻrsinga*”; *moneywise* – “*pul uchun, moliyaviy manfaatlari nuqtai nazaridan*” [Carlisle, 2010].

– **worthy** – yarim suffiksi ham hozirgi paytda eng faol elementlardan biri boʻlib, u “arziydigan” maʼnosini bildiradigan qator yangi soʻzlar yasaladi. Masalan: *seaworthy* (*dengizga borishga arziydigan*); *roadworthy*, *blameworthy*, *trustworthy*, *newsworthy* (*yangilik sifatida aytsa boʻladigan*); bu suffiksning *-worthiness* varianti bilan yasalgan qator otlar ham bor: *seaworthiness*, *roadworthiness*.

– **happy** yarim suffiksi bilan ham keyingi yillarda qator yangi soʻzlar yasaldi. Masalan: *slaphappy* (urib agʻdarilgan boksyor); *bark-happy* (poyloqchi it); *strite-happy* (unvonini oshirish istagida yonayotgan askar); *trigger-happy* (arzimagan sabab, bahona bilan ham tepki bosishga tayyor turgan xovliqma, oʻpka odam); *flight-happy* (kuni uchish bilan oʻtadigan odam); *dollar-happy* (puldor);

– **crazy** – oʻzbek tiliga “jinnisi” deb tarjima qilinadi. Masalan: *girl crazy* (qizlar jinnisi, yaʼni qizlar ketidan yuradigan shilta); *boy crazy* (aygʻirsirab qolgan qiz); *stir crazy* (qamoq, ersirab qolgan, koʻngli tusab qolgan, qamoqsirab qolgan odam; “stir” slengda qamoqxona maʼnosini bildiradi); *stage crazy* – sahna jinnisi [Butterworth, 1983].

– **conscious** – ayrim soʻzlarga qoʻshilib oʻzakda bildirilgan biror narsani yoqtiradigan, jonini beradigan, oʻzini biror narsa uchun tomdan tashlashga tayyor turgan odamni bildiruvchi soʻzlarni yasaydi. Masalan: *social-conscious* – jamiyat ishi uchun oʻzini qurbon qilishga tayyor turgan shaxs;

– **profit-conscious** – faqat foydani oʻylaydigan odam; *race-conscious* – poyganing ashaddiy tarafdori; *swimminig-conscious* – soʻzishni sevadigan odam. Bu yarim suffiksning ayrim sinonimlari ham bor.

– **struck** – *stage-struck* – sahnadan tekkan (sahna-jinnisi), *movie-struck*, *girl struck*; *social minded*, *accident-prone* (shumqadam, yaʼni qayerga borsa falokat keltirib chiqaradigan odam).

– **jockey-disc-jockey** – *plough* – *jockey-fermer*, *bus jockey* – avtobus haydovchi, *kudle jockey* – enaga, *jet-jockey* – uchuvchi, *chopper jockey* – vertolyot uchuvchisi.

– **pot** yarim suffiksi – *rum pot* – piyanista, *crack pot* – tentak odam (yaʼni yorilgan qozon); *fuss pot* – “vahimaning uyasi”, *vahimachi* odam, *stinkpot* – yoqimsiz odam, “sassiq qozon”.

– **monkey** – *road-monkey* – yoʻl qurilishi ishchisi, *broom-monkey* – farrosh; *powder-monkey* – binolarni buzuvchilar brigadasida ishlovchi odam.

– **bait** – *jailbait* – bu shunaqa odamki u bilan doʻstlashuv odamni qamoqqa tiqishi mumkin, *museum-bait* – keksa odam, *qari odam*, *date bait* – goʻzal qiz.

– **job** – *mental-job* – tomi ketgan odam; *ahmoq*, *telba*, *tentak*, *show job* – tovlamachilik, muttahamlik bilan oʻz maqsadiga erishishga urinish.

– **fiend** (*shayton*, *ajina*, *dev*) – *cigarette-fiend* – tamakining quli; *dope-fiend*, *cocaine-fiend*.

– **craft** (*hunar*) – *witchcraft* – jodugarlik, *smithcraft* – temirchilik, *statecraft* – davlat boshqaruv ishi, *proof* – *water proof* – suv oʻtkazmaydigan, *rain-proof* – yomgʻir oʻtkazmaydigan, *sound-proof* – ovoz oʻtkazmaydigan.

Bu qoʻshimcha va yarim qoʻshimchalar, shuningdek, ular yordamida yasalgan yangi soʻzlar faqat ogʻzaki nutqda ishlatiladi. Ular yozma badiiy adabiyot uslubida, gazeta matnlarida yoki rasmiy hujjatlar tilida qoʻllanilmaydi. Bu soʻzlarning taʼsirchan kuchi yuqori hissiy darajaga bogʻliq boʻlib, tinglovchilarda yangi tasavvurlarni shakllantirishga va ularning fikrlarini bayon qilinishiga xizmat qiladi. Natijada yangi maʼno uchun yangi shakl yaratilganda, bu soʻzlarning komponentlari oʻz dastlabki maʼnolarini saqlab qolmaydi va soʻzlovchi yangi maʼnoni toʻliq tushunishi uchun

tinglovchi fikrni maksimal darajada anglab olishi zarur bo'ladi.

XULOSA

Og'zaki so'zlashuv nutqi, o'zining ijtimoiy va funksional rollari orqali tilning muhim bir qismi bo'lib, u tilning bevosita ifodalanishi va rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. AQSh serjantlari va oddiy askarlar o'rtasidagi og'zaki nutq tahlili, harbiy muhitda tilning qanday ishlashini va kommunikatsiyaning ijtimoiy dinamikasini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, so'zlashuv nutqining tahlili talaffuz, intonatsiya va so'z yasashning og'zaki tilda ma'no va hissiyotlarni ifodalashdagi muhim rolini ochib beradi. Ayniqsa, unli va undosh tovushlarning talaffuzi nutqning ajralib turuvchi jihati bo'lib, bu tinglovchining lingvistik kelib chiqishi va muloqot konteksti haqida ma'lumot beradi. Intonatsiya esa grammatika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hissiyotlarni ifodalash, gap turlarini ajratish va so'zlarning ortida yotgan nozik ma'nolarni yetkazishda yordam beradi. So'zlashuv nutqida intonatsiya va sintaksisning o'zaro aloqasi og'zaki tilning murakkabligini va uning fonetik hamda grammatik belgilariga qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi.

Oddiy askarlarning nutqi odatda norasmiy va tabiiy bo'lib, shaxsiy tajriba hamda his-tuyg'ularni aks ettiradi. Ular ko'pincha kundalik til usullaridan foydalanishadi va grammatik noaniqliklarga yo'l qo'yishadi, bu esa ularning ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu lingvistik xususiyatlar askarlarning og'zaki nutqining harbiy sharoitlar va kundalik hayot ta'sirida shakllanganligini anglatadi. Mazkur xususiyatlar ularning nutqini o'ziga xos qilib ko'rsatib, harbiy muloqotning o'ziga xos stilini belgilab beradi.

Lingvistik tahlil ingliz tilidagi og'zaki nutqning fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Masalan, o'zbek va ingliz tillarida talaffuz, so'z yasash jarayonlari, tilning dastlabki shakllari hamda sleng va jargonlarning ishlatilishi tilshunoslik va til o'rganish jarayonida muhim o'rin tutadi.

Tilning rivojlanishi va o'zgarishi, asosan, so'zlashuv nutqidagi leksik va grammatik o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Til o'zining rivojlanish jarayonida yangi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni o'zlashtiradi, bu esa tilning dinamik xarakterini namoyon etadi. So'zlashuv orqali tilni o'rganish uning rivojlanishini tahlil qilishga va turli tillar o'rtasidagi lingvistik o'xshashliklarni aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, so'z yasash jarayonining lingvistik tahlili tilning ifoda imkoniyatlariga qanday moslashishini ochib beradi. Yangi leksik birliklarning paydo bo'lishi va so'zlashuv tilining ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvi odatda his-tuyg'ularni yanada ta'sirchan tarzda ifodalash zaruriyatidan kelib chiqadi. Og'zaki tilning dinamik tabiati doimiy ravishda yangi shakllar va ma'nolar yaratish orqali yangilanib boradi. Bu esa samarali og'zaki muloqotda talaffuz, intonatsiya va so'z tanlashni ongli ravishda boshqarishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adrey, J.-B. (2009). *Discourse and struggle in minority language policy formation*. London: Palgrave Macmillan.
2. Alderete, J. (1997). Dissimilation as local conjunction. In K.Kusumoto (Ed.), *Proceedings of the North East Linguistic Society* (Vol. 27, pp. 17–31). Amherst, MA: GLSA. <https://doi.org/>

- org/doi:10.7282/T3M32XFG.
3. Badecker, W. (2001). Lexical composition and the production of compounds: Evidence from errors in naming. *Language and Cognitive Processes*, 16(4), 337–366. <https://doi.org/10.1080/01690960042000120>.
 4. Berent, I. (2016). Commentary: “An evaluation of universal grammar and the phonological mind” –UG is still a viable hypothesis. *Frontiers in Psychology*, 7, 1029. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2016.01029>.
 5. Brandes, M.P., & Provotorov, V.I. (2001). *Predperevodcheskiy analiz teksta*. Moskva: NVI-Tezaurus.
 6. Butterworth, B. (1983). Lexical representation. In B.Butterworth (Ed.), *Language production: Development, writing and other language processes* (Vol. 2, pp. 257–294). London: Academic Press.
 7. Bybee, J. (1995). Regular morphology and the lexicon. *Language and Cognitive Processes*, 10(5), 425–455. <https://doi.org/10.1080/01690969508407111>.
 8. Byrd, D. (1996). A phase window framework for articulatory timing. *Phonology*, 13(2), 139–169. <https://doi.org/10.1017/S0952675700002086>.
 9. Fesenko, O.P. (2018). Foneticheskaya sostavlyayushchaya rechevogo portreta sovremennoy molodezhi (na primere rechi kursantov voyennogo vuza). *Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2. Yazykoznaniye*, 17(3), 91–98. <https://doi.org/10.15688/jvolsu2.2018.3.9>.
 10. Fiorentino, R., & Poeppel, D. (2007). Compound words and structure in the lexicon. *Language and Cognitive Processes*, 22(7), 953–1000. <https://doi.org/10.1080/01690960701190215>.
 11. Fyodorova, L.L. (1991). Tipologiya rechevogo vozdeystviya i yego mesto v postoyannom obshchenii. *Voprosy yazykoznaniya*, 6, 46–50.
 12. Goldrick, M., & Rapp, B. (2007). Lexical and post-lexical phonological representations in spoken production. *Cognition*, 102(2), 219–260. <https://doi.org/10.1016/j.cognition.2005.12.010>.
 13. Grishechko, Y.G. (2011). Sredstva realizatsii kommunikativnoy strategii vezhlivosti na sovremennom russkom yazyke. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Rostov-na-Donu: Yuzhnyy federal'nyy universitet.
 14. Hakimov, M. (2013). *O'zbek pragmalingsvistika asoslari*. Toshkent: Akademnashr.
 15. Hurston, Z.N. (2006). *Their eyes were watching God*. New York: Amistad.
 16. Carlisle, J.F. (2010). Effects of instruction in morphological awareness on literacy achievement: An integrative review. *Reading Research Quarterly*, 45, 464–487. <https://doi.org/10.1598/RRQ.45.4.5>.
 17. Christopher, H.S. (2007). *Military communications: From ancient times to the 21st century*. New York: ABC-CLIO.
 18. Clements, G.N. (1990). The role of the sonority cycle in core syllabification. In J.Kingston & M.E. Beckman (Eds.), *Papers in laboratory phonology* (pp. 283–333). Cambridge: Cambridge University Press.
 19. Cohen-Goldberg, A.M., Cholin, J., Miozzo, M., & Rapp, B. (2013). The interface between morphology and phonology: exploring a morpho-phonological deficit in spoken production. *Cognition*, 127(2), 270–286. <https://doi.org/10.1016/j.cognition.2013.01.004>.
 20. Ladefoged, P., & Disner, S.F. (2012). *Vowels and consonants* (3rd ed.). Chichester, UK: Wiley-Blackwell.
 21. Liberman, M., & Prince, A. (1977). On stress and linguistic rhythm. *Linguistic Inquiry*, 8(2), 249–336.
 22. Makhmudova, Z.I. (2021). The consonant system of English. *Academic Eesearch in Educational Sciences*, 2(5), 372–377.
 23. McClelland, J.L., & Patterson, K. (2002). Rules or connections in past-tense inflections: what does the evidence rule out?. *Trends in Cognitive Sciences*, 6(11), 465–472. [https://doi.org/10.1016/s1364-6613\(02\)01993-9](https://doi.org/10.1016/s1364-6613(02)01993-9).

24. Pegler, M. (2014). *Soldiers' songs and slang of the Great War*. Oxford: Osprey Publishing.
25. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.
26. Ullman, M.T. (2001). The declarative/procedural model of lexicon and grammar. *Journal of Psycholinguistic Research*, 30, 37–69. <https://doi.org/10.1023/A:1005204207369>.
27. Uwen, G., & Mensah, E. (2022). Tomorrow may not be yours: Military slang and jargon as linguistic performance in Nigeria. *Language Matters*, 53(3), 91–111. <https://doi.org/10.1080/10228195.2022.2122540>.
28. Xu, C.X., & Xu, Y. (2003). Effects of consonant aspiration on Mandarin tones. *Journal of the International Phonetic Association*, 33(2), 165–181.
29. Yusupov, O'.Q. (2013). *Ingliz va o'zbek tili arining chog'ishtirma lingvistikasi*. Toshkent: Akademnashr.
30. Cholin, J., Levelt, W.J.M., & Schiller, N.O. (2006). Effects of syllable frequency in speech production. *Cognition*, 99(2), 205–235. <https://doi.org/10.1016/j.cognition.2005.01.009>.

REFERENCES

1. Adrey, J.-B. (2009). *Discourse and struggle in minority language policy formation*. London: Palgrave Macmillan.
2. Alderete, J. (1997). Dissimilation as local conjunction. In K.Kusumoto (Ed.), *Proceedings of the North East Linguistic Society* (Vol. 27, pp. 17–31). Amherst, MA: GLSA. <https://doi.org/doi:10.7282/T3M32XFG>.
3. Badecker, W. (2001). Lexical composition and the production of compounds: Evidence from errors in naming. *Language and Cognitive Processes*, 16(4), 337–366. <https://doi.org/10.1080/01690960042000120>.
4. Berent, I. (2016). Commentary: "An evaluation of universal grammar and the phonological mind" –UG is still a viable hypothesis. *Frontiers in Psychology*, 7, 1029. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2016.01029>.
5. Brandes, M.P., & Provotorov, V.I. (2001). *Pre-translation text analysis*. Moscow: NVI-Thesaurus.
6. Butterworth, B. (1983). Lexical representation. In B.Butterworth (Ed.), *Language production: Development, writing and other language processes* (Vol. 2, pp. 257–294). London: Academic Press.
7. Bybee, J. (1995). Regular morphology and the lexicon. *Language and Cognitive Processes*, 10(5), 425–455. <https://doi.org/10.1080/01690969508407111>.
8. Byrd, D. (1996). A phase window framework for articulatory timing. *Phonology*, 13(2), 139–169. <https://doi.org/10.1017/S0952675700002086>.
9. Carlisle, J.F. (2010). Effects of instruction in morphological awareness on literacy achievement: An integrative review. *Reading Research Quarterly*, 45, 464–487. <https://doi.org/10.1598/RRQ.45.4.5>.
10. Cholin, J., Levelt, W.J.M., & Schiller, N.O. (2006). Effects of syllable frequency in speech production. *Cognition*, 99(2), 205–235. <https://doi.org/10.1016/j.cognition.2005.01.009>.
11. Christopher, H.S. (2007). *Military communications: From ancient times to the 21st century*. New York: ABC-CLIO.
12. Clements, G.N. (1990). The role of the sonority cycle in core syllabification. In J.Kingston & M.E. Beckman (Eds.), *Papers in laboratory phonology* (pp. 283–333). Cambridge: Cambridge University Press.
13. Cohen-Goldberg, A.M., Cholin, J., Miozzo, M., & Rapp, B. (2013). The interface between morphology and phonology: exploring a morpho-phonological deficit in spoken production. *Cognition*, 127(2), 270–286. <https://doi.org/10.1016/j.cognition.2013.01.004>.
14. Fesenko, O.P. (2018). Phonetic aspect of young people's speech portrait (exemplified by speech of military institute cadets). *Science Journal of Volgograd State University. Series 2. Linguistics*, 17(3), 91–98. <https://doi.org/10.15688/jvolsu2.2018.3.9>.

15. Fiorentino, R., & Poeppel, D. (2007). Compound words and structure in the lexicon. *Language and Cognitive Processes*, 22(7), 953–1000. <https://doi.org/10.1080/01690960701190215>.
16. Fyodorova, L.L. (1991). Typology of speech influence and its place in constant communication. *Questions of Linguistics*, 6, 46–50.
17. Goldrick, M., & Rapp, B. (2007). Lexical and post-lexical phonological representations in spoken production. *Cognition*, 102(2), 219–260. <https://doi.org/10.1016/j.cognition.2005.12.010>.
18. Grishechko, Y.G. (2011). Means of implementing the communicative strategy of politeness in the modern Russian language. *Abs. cand. thes. philol.* Rostov-on-Don: Southern Federal University.
19. Hakimov, M. (2013). *Fundamentals of Uzbek pragmalinguistics*. Tashkent: Akademnashr.
20. Hurston, Z.N. (2006). *Their eyes were watching God*. New York: Amistad.
21. Ladefoged, P., & Disner, S.F. (2012). *Vowels and consonants* (3rd ed.). Chichester, UK: Wiley-Blackwell.
22. Liberman, M., & Prince, A. (1977). On stress and linguistic rhythm. *Linguistic Inquiry*, 8(2), 249–336.
23. Makhmudova, Z.I. (2021). The consonant system of English. *Academic Eesearch in Educational Sciences*, 2(5), 372–377.
24. McClelland, J.L., & Patterson, K. (2002). Rules or connections in past-tense inflections: what does the evidence rule out?. *Trends in Cognitive Sciences*, 6(11), 465–472. [https://doi.org/10.1016/s1364-6613\(02\)01993-9](https://doi.org/10.1016/s1364-6613(02)01993-9).
25. Pegler, M. (2014). *Soldiers' songs and slang of the Great War*. Oxford: Osprey Publishing.
26. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalinguistics*. Tashkent: State Scientific Publishing House of 'National Encyclopedia of Uzbekistan'.
27. Ullman, M.T. (2001). The declarative/procedural model of lexicon and grammar. *Journal of Psycholinguistic Research*, 30, 37–69. <https://doi.org/10.1023/A:1005204207369>.
28. Uwen, G., & Mensah, E. (2022). Tomorrow may not be yours: Military slang and jargon as linguistic performance in Nigeria. *Language Matters*, 53(3), 91–111. <https://doi.org/10.1080/10228195.2022.2122540>.
29. Xu, C.X., & Xu, Y. (2003). Effects of consonant aspiration on Mandarin tones. *Journal of the International Phonetic Association*, 33(2), 165–181.
30. Yusupov, O.Q. (2013). *Comparative linguistics of English and Uzbek languages*. Tashkent: Akademnashr.